

METAFORALARNING BADIY ADABIYOTDA TASVIRIY IFODANING ASOSIY SHAKLI SIFATIDA

Abdulxay Qosimov Axadaliyevich.

Amaliy ingliz tili kafedrası o'qituvchisi,

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya. Metaforalar bizga mavhum tushuncha va hodisalar, jumladan adolat, shafqat va boshqa shu kabi mavhum tushunchalarni o'xshashlik asosida tasvirlashga imkonyaratadi, shuning uchun metaforalar tilda ijodiy va boshqaruvchi element bo'lib shakllanadi.

Kalit so'zlar: metafora, tasvirlash, adabiyot, suhbat, o'xshashlik

Аннотация. Метафоры позволяют нам описывать абстрактные понятия и явления, включая справедливость, сострадание и другие подобные абстрактные понятия, по аналогии, поэтому метафоры формируются в языке как творческий и управляющий элемент.

Ключевые слова: метафора, описание, литература, беседа, аналогия

Annotation. Metaphors allow us to describe abstract concepts and phenomena, including justice, compassion and other similar abstract concepts, by analogy, so metaphors are formed in language as a creative and controlling element.

Keywords: metaphor, description, literature, conversation, analogy

Ilmiy adabiyotlarda metaforalarning pragmatik jihatlari alohida e'tirof etilgan. Metaforalar keng ko'lamli maqsadlarga erishish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan vositalar sifatida tavsiflangan, jumladan tushuntirish, umumlash tirish, nuqtainazarni qo'llab-quvvatlash, tasvirlash, aniqlashtirish yoki ishontirish kabi jihatlarni misollar sifatida keltirish mumkin[3]. Biroq bumaqsadlar mazmun jihatdan turlichadir. Xulosa qilish – turli kommunikativ maqsadlarni (ishontirish yoki qaror qabul qilish kabi) ko'zda tutuvchi stilistik strategiya sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Tasvirlash esa, odatda, tushuntirish

vositasi sifatida qaraladi. Bundan farqli o'laroq, Valtonning ta'kidlashicha, biror narsani aniqlashtirishga urinish esa tushuntirishning maxsus turi hisoblanadi [4]va kimnidir biror fikr uchun ko'ndirish, odatda, birinsonning nuqtainazarini qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

Ilmiyadabiyotlarda metaforalarning uch va zifasi, ya'ni tushuntirish, tasvirlash va ishontirish, eng muhim funksiyalar sifatida tahlil qilingan. Badiiy adabiyotlarda ushbu metaforalarning qo'llanilishi o'quvchilarga muallifning o'zigaxos, individual konseptual qarashlarini ifodalabberadi. Jumladan, badiiy adabiyotda quyidagi metaforalar, nafaqat obrazli til vositasi sifatida, balki ular butun dunyo bo'ylab mashhur iqtibosga aylangan.

Life's but a walking shadow, a poor player / That struts and frets his hour upon the stage. – Hayot-bu shunchaki yuradigan soya, sahna atrofida aylanib yuradigan va sahnada o'zsoatini o'tkazadigan bechora o'yinchi.

Hayot tushunchasi majoziy ma'noda“ yuruvchi soya” va “bechora o'yinchi" bilan taqqoslangan. Hayot mazmun va doimiylikdan holi o'tkinchi soyaga, spektakldagi o'rtamiyona aktyorga qiyoslanadi. Hayotning o'tkinchi tabiati, uning qisqaligi va vaqtinchalik mavjudligi metaforik tarzda“ sahna atrofida aylanib yuradigan va sahnada o'z soatini o'tkazadigan bechora o'yinchi”ga o'xshatiladi. Bu odamlar g'oyib bo'lishidan oldin qisqa vaqtdavomida o'zrollarini (aktyorlar singari) o'ynaydigan vaqt o'tishini ko'rsatib beradi. Metaforik taqqoslash vaqtinchalik hayot sifati va teatr tomoshasi elementlari o'rtasida o'xshashliklarni keltirib chiqaradi. Hayot o'tkinchi, ahamiyatsiz va qisqa, ko'p jihatdan yurayotgan soyaga yoki sahnada rol o'ynaydigan aktyorga o'xshab tasvirlangan. Metafora narsalarning umumiy tartibida inson mavjudligining o'zgaruvchanligi va ahamiyat sizligini ta'kidlaydi.Ushbu metafora Shekspirning o'tkinchi va qisqa hayot haqidagi metaforik chuqurligini namoyish etadi.

Shekspirning quyidagi qo‘llagan metaforasi ham yuqoridagi metaforasing ariinson va uning hayotini ifodalashda o‘zigaxos rang-baranglik beradi.

All the world’s a stage, and all the men and women merely players’.

Hayot busahna, undagi insonlar (erkaklar va ayollar) shunchaki o‘yinchilar.

Ushbu metafora butun dunyoni sahna bilan taqqoslab, dunyo va teatr tomoshasi uchun maydon o‘rtasida parallel lik yaratadi. Bu shunik o‘rsatadiki, hayotning o‘zi voqealar sodir bo‘ladigan va odamlar o‘z rollarini o‘ynaydigan sahnaga o‘xshaydi. Ushbu metafora hayotning ulkan spektaklida barcha shaxslarni (erkaklar va ayollar) oddiy aktyorlar sifatida tasvirlaydi. Bu shuni anglatadiki, odamlar butun hayoti davomida, xuddi spektakldagi aktyorlar singari, turlixil rollarni bajaradilar, turlixil qiyofalarga kiradilar. Ushbu metaforik taqqoslash ham inson mavjudligining o‘tkinchi va ijro etuvchi tabiatini ta’kidlaydi, tushuntirib keladi.

Shuningdek, ingliz ijodkorlaridan Alfred Noyesning “Talonchi” asarida tabiat manzaralarini ochib berish uchun metaforalardan foydalanadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchiga tabiatning o‘ziga xos go‘zalligini ko‘rsatishga xizmat qiladi:

The wind was a torrent of darkness upon the gusty trees. The moon was a ghostly galleon tossed upon cloudy seas. The road was a ribbon of moonlight over the purple moor

Shamol yalang‘och daraxtlarga urilayotgan zulmat (daryosi) oqimi (ga o‘xshardi) edi. Oy bulutli (to‘lqinli) dengizda suzayotgan yelkanli arvoq kema (ga o‘xshardi) edi. Yo‘l oy nuri tushib turgan binafsha rang gullarning bog‘ichi (lenta) edi.

Birinchi gapda shamol

Metaforik holatda “zulmat oqimiga o‘xshatiladi, buuning qorong‘u, hammanarsani yutib yuboruvchi suv toshqini kabi kuchli va shiddatli tabiatini ko‘rsatib beradi. Yalang‘och daraxtlar shamol kuchi va uning “azoblarini” ifodalab beruvchi vositalar sifatida ta‘riflanadi. Metafora shamolning kuchliligi faqat iyligini ta‘kidlab, uni kuchli, hammanarsani yutib yuboruvchi zulmat toshqinideya ta‘riflamoqda. Bu tasvirsh amolning kuchi va uning atrof muhitga ta‘sirini yorqintasvirlab bermoqda. Ushbu metaforik tasvirlash o‘quvchilar ongida shamolning kuchi va tabiiy jarayonlarning visual tasvirini yaratishga yordam beradi. Ikkinchi gapda, Oy yelkanli arvoh kemaga o‘xshatiladi. Shuning dek, osmon dengizga, bulutlar esa dengizning to‘lqinlarga taqqoslanadi. Yo‘l esa ushbu ajoyib manzaraning yanadaochib beruvchi, oy nuritushib turgan binafsha rang gullarning bog‘ichiga o‘xshatiladi.

Shuni alohida ta‘kilash joizki, suhbat davomida metaforalardan foydalanish, tinglovchiga vaziyatni baholashning yangi usulini taqdimetadi. Bu nafaqat tushunishga, balki unga bo‘lgan munosabatimizga hamda bilan bog‘liq yoki unga tegishli bo‘lgan keying qarorlarga ham ta‘sir qilishi mumkin. Bunda biz tanlagan metaforalarning qaydarajada emotsional ekanligi asosiy rol o‘ynaydi. Shuningdek, Shmidning fikricha, metaforalar suhbat davomida ritorik funksiyasiga urg‘uberib qo‘llanilganda, ko‘pincha, so‘zlovchi tinglovchini ko‘ndirish maqsadini ifodalaydi[2]. Aristotel metaforalarning kommunikativ funksiyalariga ishora qilib, ularni “*tushunishni osonlashtiruvchi vositalar*”, deya ta‘riflagan[1].

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, aynan metaforalar o‘quvchilarga badiiy asarlardagi adib yoritmoqchi bo‘lgan hissiy kechinmalarini tushunishga va uni his qilishga majbur qiladi. Aristotel metaforalarni qo‘llashni san‘at darajasiga chiqarganining asl mazmun mohiyati ham aynan mana shu holatdir. Muallif ular orqali o‘quvchi ongida yaxshi yoki yomon insoniy fazilatlar uyg‘ota oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sandys J. E. et al. The rhetoric of Aristotle. – University Press, 1877. – T.1.
2. Schmid H. J. Functions of metaphor //Beiträge zu Sprache und Sprachen. – 1998. – T. 2. – C.163-172.
3. Semino E. Metaphor in discourse. – Cambridge : Cambridge University Press, 2008. – C.81.
4. Walton D. A dialogue system specification for explanation //Synthese. – 2011. – T. 182. – C.349-374.